

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2025

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AХВОРОТНОМАСИ



В Е С Т Н И К
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

REVMATOID ARTRITNI ERTA TASHXISLASHDA BIOMARKERLAR KOMBINATSIYASI YUQORI SEZUVCHANLIKKA EGA.

Miraxmedova X.T., Raximova M.R.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Kirish. Revmatoid artrit (RA) keng tarqalgan autoimmun kasallik bo'lib, bo'g'imlarda immunitet hujayralarining infiltratsiyasi, bo'g'imlarda og'riq va avj oluvchi suyaklarning destruksiyasii bilan tavsiflanadi. RAda nishon antigenlar asosidabir nechta antitanacha tizimlari aniqlangan bo'lib, bu antitanachalar anti-sitrulinlangan oqsil antitanachalari (ASSO) va revmatoid omil (RO) odatda RA tashxisiga asosiy biomarkerlar hisoblanadi. Ushbu antitanachalar RAda yuqori sezuvchanlik va spetsifiklikka ega bo'lsa-da, ularning o'ziga xosligihar doim ham optimal emas, ayniqsa revmatoid artritning ertangi bosqichlarida. Shuning uchun faqat ASSO va RO mavjudligiga asoslanib, RA bemorlarini aniqlash qiyin. Hozirgi kunda yangi biomarkerlar mavjud bo'lib, ular orasidaantikarbamillangan oqsil (anti-CarP) antitanachalari diagnostik va prognostik ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Anti-CarP antitanachalari RA bilan kasallangan bemorlarda bo'g'im shikastlanishi va artralgiyaning kelajakda revmatoid artritga aylanish ehtimoli bilan bog'liq ekani aniqlangan. Shu sababli, biz RAning erta tashxisini va prognozini yaxshilash maqsadida ushbu antitanachalar kombinatsiyasining diagnostik ahamiyatini o'rganishni maqsad qildik.

Materiallar va usullar. PubMed ma'lumotlar bazasida "anti-CarP antitanachalari" kalit so'zi bo'yicha qidiruv amalga oshirildi. Bundan tashqari, "karbamilatsiya" va "antitanacha" so'zlari bo'yicha ham qo'shimcha qidiruv o'tkazildi. 2024-yil 2-may holatiga ko'ra, birinchi qidiruv natijasida 61 ta maqola, ikkinchi qidiruv natijasida esa 52 ta maqola aniqlandi. Tadqiqotlar quyidagi mezonlar asosida tanlab olindi: ACPA, RF va anti-CarP antitanachalarga oid ma'lumotlar kamida ikkita guruh uchun mavjud bo'lishi (masalan, RA bemorlari va nazorat guruhi yoki RA bemorlari va sog'lom birinchi darajali qarindoshlar).

Natijalar. Tahlil uchun jami 12 ta nashr tanlab olindi. Barcha tadqiqotlar retrospektiv uslubda bajarilgan bo'lib, ulardan uchtasi RA kasalligining rivojlanishidan oldingi davrda bemorlarning qon namunalarini o'rganishga qaratilgan edi. Barcha tadqiqotlarda RA tashxisi uchun 2010-yilda qabul qilingan ACR mezonlari qo'llanilgan. Turli tadqiqotlarni quyidagi to'rt guruhga ajratish mumkin: RA bemorlari va sog'lom nazorat guruhi; RA bemorlari va kasallik nazorati guruhi; RA bemorlari va sog'lom birinchi darajali qarindoshlar; Turli RA guruhlarida o'rtasidagi taqqoslash. Antitanachalar RA bemorlarida yuqori darajada aniqlangan (34–80%), biroq RA bo'lmagan nazorat guruhlarida ham uchraydi (0–23%). RA tashxisida ASSO va RF kombinatsiyasi yaxshi natija bergan (o'ziga xoslik: 65–100%, sezgirlik: 59–88%). ASSO, RO va anti-CarP antitanachalarining birgalikdagi aniqlanishi esa yuqori o'ziga xoslik (98–100%) ko'rsatgan, garchi sezgirlik biroz past bo'lsa ham (11–39%).

Munozara. Ushbu tadqiqotda biz anti-CarP antitanachalarining diagnostik va prognostik ahamiyatini o'rganib chiqdik. Meta-tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu uchta antitanachani birgalikda tekshirish sog'lom nazorat guruhida noto'g'ri ijobiy natijalarni kamaytirishi va RA tashxisining aniqroq qo'yilishiga yordam berishi mumkin.

Xulosa. Anti-CarP antitanachalari, ASSO va RO kombinatsiyasi turli nazorat guruhlarida bilan solishtirilganda erta RA bemorlarini aniqlashda yuqori diagnostik o'ziga xoslikka ega ekani aniqlandi. Ushbu kombinatsiyaning qo'llanilishi RA tashxisini aniqroq qo'yish va kasallikni erta bosqichda aniqlashga yordam berishi mumkin.

FIBROMIALGIYA DIAGNOSTIKASIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Mavlonova D.B.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Kirish: Fibromialgiya surunkali mushak-skelet tizimi og'riqlari, charchoq va uyqu buzilishi va kognitiv disfunktsiyabilan kechuvchi kompleks sindrom bo'lib, uningdiagnostikasi hali ham dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Fibromialgiyaning o'ziga xos biomarkerlarining yo'qligi va klinik belgilarning boshqa kasalliklar bilan o'xshashligi tashxis qo'yishni murakkablashtiradi. So'nggi yillarda zamonaviy tashxis usullari, jumladan, neyrofiziologik tadqiqotlar, biokimyoviy markerlar va tasviriy tekshiruvlar yordamida tashxis qo'yish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu ishda fibromialgiyani tashxislashdagi asosiy muammolar tahlil qilinib, zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi baholanadi

Tadqiqot maqsadi: Fibromialgiyani tashxislashda asosiy muammolarni aniqlash, mavjud tashxis usullarining samaradorligini baholash va ilg'oryondashuvlarning klinik amaliyotdagi ahamiyatini o'rganish.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqotdafiromialgiyani tashxislash bo'yicha so'nggi yillardagiilmiy maqolalar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Quyidagi diagnostik metodlar ko'rib chiqildi

Klinik diagnostik mezonlarni -(ACR, 2016) Amerika Revmatologiya Kollejiagnostik kriteriyalarining samaradorligi o'rganildi [1].

Neyropsixologik testlar - Depressiya, havotir va uyqu buzilishlarini baholashuchun (HADS) va (PSQI) so'rovnomalaridan foydalanildi [2].

Neyrofiziologik tadqiqotlar - f MRTva EEG – orqali miya faoliyatidagi o'zgarishlar tahlil qilindi [3].

Biokimyoviy markerlarni baholash (fibromialgiya bilan bog'liq yallig'lanish mediatorlari IL-6 va TNF-a darajalari o'rganish [4].